

ALEKSANDR ARKADYEVICH FAYNBERGNING IJODIY HAYOTIGA  
NAZAR

Ozodova Dinara

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
xorijiy til va adabiyoti 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'z zamonasining yetuk shoirlaridan biri bo'lgan, o'z she'rлarida mehr- muruvvat va xalqlar o'rtasida hamjihatlikni yoritgan o'zbek shoiri Aleksandr Arkadyevich Faynberg haqida ma'lumot boradi. Bu maqola orqali yozuvchining hayoti va ijodi haqida bir nechta ma'lumotlarga ega bo'lib, uning ijodiy to'plamidan o'rinni qilinadi.

**Kalit so'zlar:** "Etyud", "Smena", domulla, nasvoy, alkogolik, supa, atom

**Annotation:** In this article there will be given information about Aleksandr Arkadyevich Faynberg who was the best poet of his time and also lighted kindness and friendship among nationalities in his creative work. By this article, we will know number of information about life and creative work of this writer as well as will discuss some of his poems.

**Key words:** "Etyud", "Smena", teacher, nasvai, alcoholic, supa, atom

**Adabiyot yashasa, millat yashaydi.**

**(Abdulhamid Cho'lpon)**

Dunyoga kelgan har inson borki, umri davomida o'z maqsadlarini anglash va hayotining asl mazmun-mohiyatini tushinish uchun kitoblarga, ayniqsa adabiyotga muhtojlik sezadi. Adabiyot nasri bizni unutilmas hayolot olamiga olib kirar ekan, she'riyat dunyosi bu hayolotni yanada qiziqarlieroq, ta'sirliroq va mazmunliroq qiladi. She'r haqida gap ketar ekan, uni oddiy o'qib qo'yishning o'zi kamlik qiladi, balki tushunishga qancha tunlar bedor ketar, mag'zini chaqishga balki kun-u tun kamlik qiladi. Chunki shoirlarimiz borki, bir jumla ustida soatlab bosh qotiradigan, shoirlarimiz borki, ijodiga jon berish uchun jon taslim qilgan.

O'zbek she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz, nafaqat asli millat vakillari, balki O'zbekistonda tug'ilgan lekin, kelib chiqishi boshqa millatga mansub bir nechta shoirlar ijodiga duch kelamiz. Hayot bosgan har qadamida insonni qayerlarga olib keta olishini bilishga biz ojizmiz. Shuningdek, borgan joyda ildiz otish, gullash hammaning ham qo'lidan kelmaydigan ayni davr, 1939- yil 2- noyabrda Aleksandr Faynberg O'zbekistonning Toshkent shahrida tavallud topadi. Ota-onasi Novosibirskdan ko'chib, endi ko'nika boshlagan O'zbekistondagi yangi hayotida bu farzand omad olib kela oldi deb bemalol aytal olsak kerak. Yozuvchining otasi Arkadiy Lvovich Faynberg (1891-1971), asli Gatchinalik bo'lib, texnologiya instituti ta'limini yakunlagach, spirt zavodida

bosh muhandis sifatida ish yuritgan. Onasi Anastasiya Aleksandrovna (1904- vafot yili noma'lum), Moskvada tug'ilib o'sgan va u ham spirit zavodida mashinist bo'lib ishlagan. Yetti yillik maktab ta'limini tugatgan Aleksandr, bir nechta joylarda o'z o'qishini davom ettirgan. Xususan, shoir Toshkentdagi topografika texnikumi, Toshkent universiteti filologiya va jurnalistika fakultetlarida sirtqi ta'lim olgan. Ayni vaqtida Tojikistondagi harbiy xizmatni ham o'tashga ulgurgan. O'qigan kezlarida esa talabalar gazetasini unga ilk faoliyat sifatida muvafaqqiyat olib kelgan. O'qigan odam bilganlarini boshqalar bilan ham bo'lishgisi keladi, xoh tushuntirish nasrda bayon qilinsa, xoh u satrlarga qofiya bilan tushadi. O'quvchi uqtirish uchun she'riy bayonotni tanlagan shoir endilikda ijod qilishni boshlar ekan, bu yo'lda uning gazetalardagi yuritgan faoliyati bejizga emas.

Ijod olamiga o'zining ilk ammo shahdam qadamini qo'ygan Aleksandr bir nechta to'plamlari bilan qisqa muddatda shuhratga erishgan. Shoir 1965-1969 yillar davomida Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi lavozimida faoliyat yuritgan. Shu kezlarda uning "Etyud" va "Soniya" singari she'riy to'plamlari nashr yuzini ko'rgan. Shoирning 20ga yaqin she'riy to'plamlari mavjud bo'lib ulardagi she'rlar "Smena", "Yoshlik", "Yangi dunyo", "Sharq yuzlduzi" va yana AQSH, Kanada, Isroilning davriy nashrlarida chop etilgan. Yozuvchi faqatgina she'r ijodi bilan cheklanib qolmasdan, multfilim va kinomotografiyada ham o'z ijodiga erkinlik berib ko'rgan. Xususan, 1999-yil "Paxtakor" futbol jamoasining avtohalokat qurboni bo'lganiga 20 yil to'lgani sabab, uning ssenariysi asosida "Osmondag'i stadion" filmi suratga olingan. Bundan tashqari shoir "Issiq quyosh ostidagi uy" film ssenariysi muallifi hamdir. Har buyuk boshlanma nihoyasi, cho'qqining oxiri, asarlarning ham yakuni bo'lganidek, taqdir Aleksandr Akadyevich Faynbergni 2009- yil 14- oktabr kuni muxlislar bag'ridan olib ketdi. Shoir mehnati va umrini bahshida qilgan ajib she'rlari sabab, 1999- yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, 2004-yilda O'zbekiston xalq shoiri, 2008- yilda Pushkin medali unvonlari sohibiga aylangan. Uning ijodida G'arb va Sharq mamlakatlari udumlarining uyg'unligi mujassam bo'lib, shoir ijodidan o'r'in olgan lirik-adabiy qahramonlardan mehr-shavqat va insoniylikni o'rganishimiz mumkin. Adabiyotning o'tkir tili bor, tushungan undan foydalanadi, uqiy olmagan jabrlanadi. Yozuvchi ayni adabiyot shamshirini qo'rmasdan ishlata olgan adiblardandir. Shuningdek, uning she'rlarida, asosan, o'zbek va evropa xalqlari udumlari, odamlari, yashash tarzları jihatdan solishtirilgan. Xususan, shoирning "Yevropalik uchun nutq" deb nomlangan she'rida, "домулла"(domla), "насвой"(nasvoy), "супа"(supa) kabi o'zbek xalqining madaniyatini aks ettiruvchi so'zlar qo'llangan bo'lib, bu so'zlar ma'nosi "evropalik" nomi ostida boshqa butun xalqlarga bayon qilingan. She'r orqali o'zbek mahalliy hayot falsafasi va Evropa dunyoqarashi bilan taqqoslanadi. Satirik shaklda yozilgan bu she'r o'zbek lug'atining naqadar boy ekanligini ochib beradi. Aleksandr Faynberg ijodi humor, haqiqat va falsafaga boydir. Uning "Алкоголик"(Alkogolik) humoristik she'ri ostida ham tushunilishi kerak bo'lgan ulkan falsafa mujassam. Bu she'rda insonlarning ichkilikka o'zini ham angloymaydigan darajada mukkasidan ketib borayotganligi tasvirlanib, ichkilikka qarshi fikrlar satirik uslubda tasvirlagan, hamda ichkilikni g'amni

aritguvchi ichimlik sifatida qaramaslikni va har ishda me'yor bo'lishini she'r orqali bayon qilgan.

Xulosa o'rnida aytish joizki, nasriy bo'lzin yoki she'riy, adabiyotning oshig'i bo'lish insonnig xulqiga, tarbiyasiga va hayot tarziga ma'no qo'shadi, uni har tomonlama boyitishga yordam beradi. Aleksandr Arkadyevich Faynberg o'zbek adabiyot dunyosini o'zining takrorlanmas ijodi bilan boyita oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning ijodiga nazar solgan ilmi toliblar, she'rlaridan bahramand bo'lar ekan, bunday she'rlarga keyin doimiy tashna bo'lib qolaveradilar. Abdulla Qahhor aytganidek "Adabiyot atomdan kuchli quroldir uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak". Aleksandr Arkadyevich Faynberg o'zbek adabiyotidagi "atomlar" sonini bitta emas bir nechtaga ko'paytirib ketgan shoir, yozuvchi va takrorlanmas adibdir!

### **QO'LLANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Aleksandr Faynberg – Vikipediya" <https://uz.wikipedia.org>.
2. "Aleksadr Faynbergning barcha she'rlar to'plami" <https://45parallel.net>
3. "Faynbergning o'zbek adabiyotidagi o'rni" <https://mytashkent.uz>
4. "Aleksandr Faynbergning o'zbek var rus adabiyotiga ta'siri" <https://nervana.name>